

**QO'YLAR SISTISERKO'ZINING TARQALISHIDA ITLARNING O'RNI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qo'ylarning sestodoz kasalliklari senuroz va sistiserkoz haqida, ularning oldini olish maqsadida itlarni gijjasizlantirish tadbirlarining natijalari qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** sestodoz, senuroz, sistiserkoz, *taenia hydatigena*, *cysticercus tenuicollis*, *Multiceps multiceps*, arekolin.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizning chorvachilik tarmog'iga mayda va yirik shoxli hayvonlarning sistiserkozi katta iqtisodiy zarar keltirishini barcha fermer xo'jaliklari misolida yillar davomida kuza-tishimiz mumkin. Shuning uchun bu borada turli qarorlar ishlab chiqildi, qator izlanishlar, ilmiy tajribalar yanada kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Pezdidentining 2022 yil 8-fevraldagi PQ 121-sonli "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustaxkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Respublikamizda sifatli va yetarli miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga ularni turli talofatlardan asrash, har xil kasalliklarning oldini olish orqali ham iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida yil mavsumida abiotik ekologik omillar (havo namligi, harorat, atmosfera bosimi) keskin o'zgarib turadi. Ushbu ekologik omillar barcha tirik organizmlarga, shu jumladan sestodozlarning taraqqiyotiga, ularning asosiy va oraliq xo'jayinlari organizmiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Qo'ychilik xo'jaliklarida uchraydigan sistiserkoz va senuroz kabi gelmintozlar chorvachilikka ulkan iqtisodiy zarar yetkazish bilan bir qatorda inson salomatligiga ham katta xavf tug'diradi.

**Sistiserkoz**—subklinik ko'rinishda kechuvchi sestodoz bo'lib, qo'y-echki, qoramol va cho'chqalarning muskullari, diafragmasi, tili, jag' muskullarida va ko'pincha charvisida parazitlik qiladi. Kasallikni *Taenia hydatigena* ning lichinkalik shakli *Cysticercus tenuicollis* keltirib chiqaradi. Kasallik organizmning allergik javob qaytarilishi bilan xarakterlanadi. Kasallikning boshlang'ich (o'tkir) davrida oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi (ichketish), tana haroratining ko'tarilishi, xolsizlanish, qorin devorini paypaslaganda og'riq sezishi kuzatiladi. Keyingi davrda klinik belgilar sezilmaydi, hayvon oriqlab borishi hamda ko'rinadigan shilliq pardalarning anemiyasi kuzatiladi [3,4].

*Cysticercus tenuicollis*- tiniq qobiq bilan qoplangan, kattaligi tovuq tuximidek keladigan pufak bo'lib, uning ichidagi tiniq suyuqlikda pufak pardasiga yopishib turadigan bitta skoleksi bo'ladi.

Parazitning voyaga yetgan shakli - *Taenia hydatigena* it, bo'ri, shog'ol va tulkilarning asosan ingichka ichagida rivojlanib, voyaga etadi. Uning uzunligi 5m, kengligi 7,5 mm gacha yetadi. Voyaga yetgan parazit hayvonlar tezagi bilan minglab tuxumlar saqlovchi yetilgan bo'g'inlar ajratadi. Bazan bo'g'inlar ichaklarda yoriladi va tezak bilan parazit tuxumlari ham chiqadi. Chiqqan bo'g'inlar harakat qilib, yorilib tashqi muhitga tuhumlarni tarqatadi. Oraliq xo'jayin hisoblanuvchi qo'ylar mazkur bo'g'in va tuxumlari bilan zararlangan ozuqa va ichimlik suvi orqali kasallanadi. Oshqozon-ichak tizimiga tushgan teniya tuxumlaridan onkosfera ajralib chiqib, ingichka ichakning shilliq pardasini teshib, kapilyar qon tomirlariga o'tadi va qon-limfa oqimi bilan muskul to'qimalari, yurak, diafragma, charvi, chaynash muskullari, til hamda parenximatoz organlarga borib joylashadi va rivojlanib, 3 oydan keyin sistiserk pufagini hosil qiladi [2,3].

It, bo'ri, shog'ol va tulkilar sistiserk pufagini istemol qilib zararlanadi va parazit 2-5 oy ichida jinsiy voyaga yetgan shaklga aylanib, organizmda ko'p yil yashashga qodir [1,2].

A.O.Oripov, R.B.davlatov, N.E.Yo'ldoshev (2016) ma'lumotlariga ko'ra, Respublikamizda bu kasallik qo'y-echkilarda 70-80% gacha uchrashi aniqlangan.

T.H.Сивкова, Е.А.Доронин-Доргеленский (2018) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning ayrim mamlakatlarida, jumladan Sharqiy Efiopiyada 26%, G'arbiy Avstraliyada 20,5%, Saudiya Arabistonida 23% qo'ylarda kasallik uchrashi aniqlangan.

Shu tufayli ham bu kasalliklarga qarshi kurashishda kasallik qo'g'atuvchilarining asosiy xo'jayinlari bolgan itlarni doimiy ravshda gijjasizlantirib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Otarlardagi cho'pon itlarini gijjasizlantirish natijalari

T/r	Bosh cho'ponlarning Ismi familyasi	Itlar soni	Jinsi	Yoshi	Rangi	Gijjasizlantirish natijalari	
						<i>T.hydatigena</i>	<i>M.multiceps</i>
1	Nurboev Erkin	1	erkak	4	sariq	2 egzem	yo'q
		1	urg'ochi	5	sariq ola	3 egzem	yo'q
2	Amonov Odil	1	erkak	5	oq	1 egzem	yo'q
		1	erkak	2	malla	2 egzem	yo'q
3	Ahmedov Hamid	1	erkak	2	qora	3 egzem	yo'q
		1	erkak	6	qora	2 egzem	1 egzem
4	Sharipov Ashraf	1	urg'ochi	3	sariq	3 egzem	yo'q
5	Xalilov Xayyom	1	erkak	4	malla	yo'q	yo'q
6	Tilapov O'rol	1	erkak	4	oq	yo'q	1 egzem
		1	urg'ochi	5	oq	yo'q	yo'q
7	Omonov Amandulla	1	erkak	1	malla	yo'q	yo'q
		1	erkak	2	sariq ola	yo'q	yo'q
8	Maqsudov Maruf	1	erkak	2	qora ola	yo'q	yo'q
		1	erkak	6	qora	yo'q	1 egzem
		1	urg'ochi	5	sariq	1 egzem	1 egzem
9	O'tapov ergash	1	urg'ochi	3	qora	yo'q	yo'q
		1	erkak	4	malla	yo'q	1 egzem
10	Xumayev Aliboy	1	erkak	6	qora	yo'q	yo'q
		1	erkak	3	oq	yo'q	yo'q
11	Do'stbayev Rajabboy	1	erkak	4	qora ola	yo'q	yo'q
		1	urg'ochi	5	qora ola	2 egzem	yo'q
12	Ziyatov O'rolboy	1	urg'ochi	3	oq	yo'q	yo'q
		1	erkak	4	qora ola	1 egzem	1 egzem
		1	erkak	4	qo'ng'ir	2 egzem	yo'q
		1	urg'ochi	6	qo'ng'ir	yo'q	2 egzem
13	Kubaev Baxrom	1	erkak	1	sariq	yo'q	yo'q
		1	urg'ochi	3	oq	2 egzem	1 egzem
14	Klichev Baxit	1	urg'ochi	1,5	oq	2 egzem	yo'q
		1	erkak	2	oq	2 egzem	1 egzem
		1	urg'ochi	2	oq	yo'q	yo'q
15	Qurbonov Maruf	1	erkak	4	qora	yo'q	yo'q
		1	erkak	3	sariq	yo'q	yo'q
16	Raximov Sherali	1	urg'ochi	6	qora ola	1 egzem	1 egzem
		1	erkak	1	qora	yo'q	yo'q
		1	erkak	4	malla	yo'q	yo'q

**Tadqiqotning maqsadi.** Respublikamizning qo'ychilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarida qo'ylar orasida asosiy sestodozlar hisoblangan sistiserkoz va senuroz kasalliklarining epizootologik holatini o'rganish, oldini olish maqsadida ularning asosiy xo'jayini hisoblangan itlarni gijjasizlantirishdan iborat.

**Tadqiqot obekti va usullari.** Tadqiqotlarimiz Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi "Zarolmos qora-ko'l" fermer xo'jaligida olib borildi. Ilmiy tadqiqotlarimiz davomida otarlardagi cho'pon itlarini gijjasizlantirish ishlari o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari.** Qo'ychilikka ixtisoslashgan

xo'jaliklarda qo'ylar orasida turli xil parazit kasalliklarning tarqalishida itlar muntazam ishtirok etishi sababli, ularni gijjasizlantirib boorish- sestodalarga qarshi tadbirlar orasidagi muxim va samarali hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida itlarni gijjasizlantirishda arekolin kimyoviy preparatini har kg tirik vaznga 0,5 mg dan 2-3 ml suvga eritib og'iz orqali ichirildi.

Vodorod bromli arekolin – oq rangli kukun shaklida, suvda yaxshi eriydi, xidsiz. Uning ta'siri asetilxolin va karboxolinlar yoki surgi dorilar tasiriga o'xshaydi. U qo'llanganda ayniqsa, ichaklarning to'lqinsimon xarakati faoliyati tezlashadi, ichak bezlarining sekretsiyasi kuchayadi. Preparat gijjalarning tanasiga shimiladi va asab muskullariga salbiy tasir ko'rsatish oqibatida ularni falajga aylantiradi. Natijada ichaklar devorlariga yopishib turgan tasmasimon gijjalar itlarning najasi bilan tashqariga ajralib chiqadi. Preparat itlarda qusushni chaqiradi. Shu tufayli uning bir qismi tashqariga chiqarib tashlanadi. Bunday vaqtda dorini qayta ichirish lozim.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi qo'ychilik xo'jaliklarida 16 ta otarlardagi 36 ta turli yoshdagi itlarda gijjasizlantirish ishlarini olib bordik. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 36 ta turli yoshdagi itlarga vodorod bromli arekolinni har kg tirik vaznga 0,5 mg dan 2-3 ml suvga eritib og'iz orqali ichirganimizda 15 bosh itdan *T.hydatigena*, 10 bosh itdan *M.multiceps*

ajralib tushdi. Zararlangan itlarning 6 boshida esa har ikkala parazit bilan zararlanganligi malum bo'ldi.

#### **Xulosalar:**

1. Qo'ylar orasida sestodozlarning keng tarqalishiga asosiy sabab, xo'jaliklarda kasallikka qarshi profilaktik chora-tadbirlarning etarlicha tashkil etilmaganligi bilan izohlash mumkin.

2. Qo'ylarning sestodoz kasalliklari bilan zararlanishida itlar muhim o'rin egallaganligi sababli, ularni gijjasizlantirib borish- sestodalarga qarshi tadbirlar orasidagi muxim va samarali hisoblanadi.

3. Itlarni gijjasizlantirishda vodorod bromli arekolinni har kg tirik vaznga 0,5 mg dan 2-3 ml suvga eritib og'iz orqali ichirish samarasi yuqori hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aminjonov M.A. "Senuroz". Monografiya. Toshkent, 2009.

2. Aminjonov Sh.M. "Hayvon va odamlarda sistexinokokkozi-gidatidozi va ularga qarshi chora-tadbirlar". Monografiya. Toshkent, 2012.

3. Oripov A.O., Davlatov R.B., Yo'ldoshev N.E. "Veterinariya gelmintologiyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016.

4. Т.Н.Сивкова, Е.А.Доронин-Доргеленский "Ларвальные цестодозы. Биология, патология, Ветеринарно-санитарная экспертиза и контроль". Учебное пособие. 2018

А.Т.Серикова, Ж.М.Нуржуманова, Ж.Табысбек – Распространение эймериозно-стронгилятозной инвазии ангорских коз в Бескарагайском районе области Абай.....	40
Д.С.Голубев, Д.Ф.Карелин, С.Л.Радченко – Сравнительное гистологического строение желудка и кишечника щуки обыкновенной.....	42
С.С.Халиков – Разработка Противопаразитарных препаратов методами механохимической модификации известных субстанций.....	46
Ж.У.Еспанов, А.С.Даминов, А.С.Савина, Р.А.Егорова – Серологические методы прижизненной диагностики оводовых болезней лошадей. ....	48
I.X.Rayimqulov, R.B.Davlatov, X.B.Yunusov – Parrandalarni ektoparazitlardan asraylik.....	50
U.M.Asomiddinov, X.B.Yunusov, F.B.Ibragimov, F.I.Kurbanov, X.T.Yuldoshev – Baliqlarni saprolignioz va protoozozlarida baliq go‘ishtini veterinariya sanitariya jixatdan baholash.....	52
R.B.Davlatov, B.S.Rustamov – Kurkalar gistomonozining epizootologik xususiyatlari. ....	55
Г.Дж.Кутлиева, Б.И.Тураева, Х.Ф.Камолова – Спектр целлюлолитической активности штаммов bacillus subtilis, выделенных из домашних животных.....	57
Z.I.Alikulov, Sh.M.Aminjonov – Qo‘ylar sistiserko‘zining tarqalishida itlarning o‘rni.....	62
O.X.Rayimov, T.I.Tayloqov – Farg‘ona viloyatining ayrim tumanlarida qoramol trematodozlarining epizootik holati.....	65
B.K.Uluqov, X.A.Safarov – Jizzax viloyatining ayrim tumanlarida qo‘ylar gelmintozlarining tarqalishi.....	68
A.R.Tursunqulov, T.D.Boltayev – Itlarning teniidlari bilan zararlanishi va ularni oldini olish chora-tadbirlari.....	70
H.Sh.Eshqulova – Sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda tizimli boshqaruv va innovatsiyalar samaradorlikning asosiy omili sifatida .....	72
Ш.М.Жахонгиров, Ф.Т.Абдиев – Фауна и эпидемиологическое значение москитов в очагах лейшманиозов Узбекистана .....	76
Ш.М.Жахонгиров, Ф.Т.Абдиев – Эпидемические значения москитов в очагах лейшманиозов в Сурхандарьинской области .....	78
З.А.Алибоев, А.С.Даминов, Э.М.Солиев – Сирдарё Вилоятининг айрим хўжаликлариди қорамоллар орасида гельминтозларнинг тарқалиши .....	79
С.С.Сейтвелиева, А.С.Даминов – Современное состояние паразитов Бухарского оленя (Cervus hanglu bactrianus) вольерного содержания на территории Зарафшанского национального природного парка .....	82
Х.А.Кувватов, А.С.Даминов – Цестодозлар билан зарарланган балиқларнинг эпизоотологик мониторинги .....	84
Ж.М.Исаев, С.С.Халиков, И.А.Улашев, Орипов А.О. – Противогельминтные препараты методами механохимии для овец.....	86